

O'ZBEKISTON TARIXI

(XIII–XV asrlar)





Respublika
Ta'lim Markazi

O'ZBEKISTON TARIXI

(XIII–XV asrlar)

8

Umumta'lim
maktablarining
8-sinf o'quvchilari
uchun darslik

Birinchi nashr

*O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi nashrga
tavsiya etgan*



Toshkent – 2023



UO'K
KBK

Mualliflar:
Akbar Zamonov,
Nargiza Ismatova,
Bobir Aminov,
Zebo Jabborova,
Shokirjon Qudratov

Mas'ul muharrir:
Dilshod Kenjayev – *tarix fanlari nomzodi*

Taqrizchilar:

B. Usmonov – *tarix fanlari doktori;*

N. Narziyev – *tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori;*

U. Haydarov – *Buxoro tumanidagi ixtisoslashgan maktab tarix fani o'qituvchisi;*

F. Abdalniyozova – *“Ziyo-zukko” umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi.*

*Original maket va dizayn konsepsiyasi
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.*



O'ylab ko'ring



Tarix saboqlari



Manbalarda



O'rganganlarimizdan
xulosa qilamiz



Tarixiy atamalarni
eslab qoling



M U N D A R I J A

So'zboshi

5

XIII ASRDA MOVAROUNNAHR VA XORAZM

XIII asr boshlarida Xorazm
davlatida siyosiy vaziyat

8

Xorazm va Mo'g'ul davlati
o'rtasidagi munosabatlar

12

Muhammad Xorazmshohning mamlakat
mudofaasiga oid tadbirlari va buning oqibati

20

Jaloliddin Manguberdi

36

Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar
davlatini tiklash yo'lida

41

CHIG'ATOY ULUSI

Chig'atoy ulusining tashkil topishi

52

Chig'atoy ulusining ikki qismga bo'linib
ketishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot

63

XIII asr – XIV asr birinchi yarmida ilm-fan

70





AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI

XIV asrning o'rtalarida Turonda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat	76
Amir Temur – Movarounnahr hukmdori	87
Amir Temur markazlashgan davlat tuzish yo'lida	94
Amir Temurning davlat chegaralarini mustahkamlashi	100
Amir Temurning tashqi siyosati	112
Amir Temur davlatida qo'shin tuzilishi	117
Amir Temur davlatining boshqaruvi	127
Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni	132
Amir Temur davlatida obodonlashtirish va bunyodkorlik	137
Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson	146
Mirzo Ulug'bek	149
Sulton Husayn Mirzo	159
Amir Temur va temuriylar davrida iqtisodiy munosabatlar	163
Ikkinchi Renessans asoschilari	169
Temuriylar davri me'morchiligi	172
Xattotlik va miniatyura	178
Temuriylar davrida hunarmandchilik	183
Alisher Navoiy	186





SO'ZBOSHI

Siz 7-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsligida IV asrdan XIII asr boshlarigacha Turon hududida kechgan tarixiy jarayonlar bilan tanishgansiz. Ajdodlarimiz barpo etgan ulkan madaniyat namunalaridan tortib, oddiy xo‘jalik hayotida erishgan kichik yutuqlarigacha bo‘lgan voqealar haqida tasavvur hosil qildingiz. Ota-bobolarimiz tomonidan bunyod etilgan davlatlarda g‘alabali yurishlar, shu bilan birga, ulkan yo‘qotishlarga boy mag‘lubiyatlar ham sodir bo‘lgan. Bularning barchasi bizni tarixdan xulosa chiqarishga, g‘alabalarga ergashishga va mag‘lubiyatdan to‘g‘ri saboq olishga o‘rgatadi.

O‘tgan o‘quv yilida siz O‘zbekiston tarixi fanini “Xorazmshoh-anushteginiylar davlati” mavzusi bilan yakunlagan edingiz. Endi 8-sinfda mazkur davlat o‘rnida barpo etilgan ikkita yirik davlat tarixi bilan yaqindan tanishasiz. Bularning birinchisi XIII asrning 20-yillarida Xorazmshohlar davlatini egallab olgan Chingizxon imperiyasi va bu yerda hukm surgan uning avlodlari davlati (Chig‘atoy ulusi) bo‘lsa, ikkinchisi yemirilayotgan Chig‘atoy ulusi o‘rnida XIV asrning 70-yillarida tashkil topgan Amir Temur va temuriylarning Turon davlati. Demak, mazkur darslikni o‘qish davomida mamlakatimiz va unga yondosh hududlarning XIII–XV asrlardagi tarixi bilan tanishasiz.

Sizga ma‘lumki, Xorazmshohlar davlati hududi Alouddin Muhammad (1200–1220) davrida nihoyatda kengaygan bo‘lib, sharqda Chingizxon imperiyasi bilan chegaradosh bo‘lib qolgan edi. Bu ikki imperiya o‘rtasida boshlangan raqobat va nizo keyinchalik Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar tomonidan Movarounnahr, Xorazm va Xurosonning bosib olinishiga olib keldi. Bu harbiy-siyosiy jarayonlarda, yurt uchun kurash yuqori pog‘onaga chiqqan pallada bir qator qahramonlar – Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi siymolar o‘zini namoyon qildi. Mazkur darslikda siz ularning faoliyati, jasoratlari bilan atroflicha tanishasiz.

Chingizxon istilosidan keyin Turonda Chig‘atoy ulusi tashkil etilgach, hududga boshqaruv va ijtimo

moiy hayotning yangi namunalari kirib keldi hamda mahalliy an‘analari bilan qorishib ketdi. Ilm-fan, madaniyat qayta rivojlana boshladi. Ko‘chmanchi mo‘g‘ul xonlari o‘troqlashdi, islom dinini qabul qilib, mahalliy an‘ana va qadriyatlarga rioya qila boshladi. Lekin boshqa sulolalarda bo‘lgani kabi toj-u taxt uchun kurashlar Chig‘atoy ulusini ham ichidan yemira boshlagan. Natijada ikki katta qismga bo‘lingan Chig‘atoy ulusi o‘z ichida yana bir necha mayda qismlarga bo‘linib, parchalanib ketdi. Shunday bir pallada mazkur hududlarni yagona bir bayroq ostida birlashtiradigan kuchli shaxsga, yetakchiga ehtiyoj mavjud edi. Bu ehtiyoj Amir Temur siymosini yuzaga chiqardi. Amir Temur Turon hududidagi kichik davlatlarni birlashtirib, tanazzulga uchrayotgan xo‘jalik va madaniyatni qayta tiklagan buyuk davlat arbobi va lashkarboshi sifatida tarix sahnasiga chiqdi.

Amir Temur va temuriylar (1370–1507) sulolasi tarixini chuqur bilish nima uchun zarur?

Birinchidan, biz kelajagi buyuk O‘zbekistonni barpo etishga kirishgan ekanmiz, bobokalonimizning ulug‘ hayot yo‘li va faoliyati bizga katta ishonch, intilish, qat‘iyat va kuch-quvvat baxsh etadi.

Ikkinchidan, Amir Temur va temuriylar tarixini har tomonlama chuqur o‘rganish faqat ilmiy-ma‘rifiy ahamiyat kasb etib qolmasdan, tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ham egadir. Tarix har bir insonni o‘z Vataniga muhabbat, sadoqat, o‘z xalqining o‘tmishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, uning yutuqlaridan faxrlanish, rivojlanishi uchun o‘z hissasini qo‘shish ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, siz mazkur darslikda XIII–XV asrlarda mamlakatimiz tarixida mavjud bo‘lgan sulolalar tarixi, davlatchilik an‘analari, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi bilan tanishasiz.

Mamlakatimiz xalqlarining vatanparvarligiga, yurt obodonchiligi, farovonligi, jamiyat rivoji uchun sa‘y-harakatlariga guvoh bo‘lasiz.





Respublika
Ta'lim Markazi

Jaloliddin Manguberdi el-yurt istiqloli uchun kurashgan, shu yo'lda aziz jonini qurbon qilgan ajdodlarimizning buyuk namoyandasidir. Ona yurtga muhabbat va sadoqat, or-nomus va shon-sharaf bobida Jaloliddin Manguberdiga teng keladigan ulug' shaxslar dunyoda kamdan kam uchraydi.

**Shavkat Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

XIII ASRDA MOVAROUNNAHR VA XORAZM



vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza456, nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

8-sinf O'zbekiston tarixi darsligini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**



Tarix saboqlari

Xorazmshohlar saltanati hududi

Sulton Muhammad Xorazmshoh ajdodlaridan qolgan saltanatni ulkan imperiyaga aylantirdi. U 1212-yili Movarounnahrda qoraxoniylar boshqaruviga chek qo'ydi hamda Eronning Kirmon viloyatini, Mikronni, so'ng Balujistonni egallashga muvaffaq bo'ldi. Shundan keyin sulton xalifa nomini xutbadan chiqarib

tashlashni buyurdi. U tez orada Samarqandni o'z poytaxti deb e'lon qildi. Xorazmshohning Bag'dod xalifaligi bilan kurashi natijasida xalifalikning mo'g'ullar bilan yaqinlashuvi yuz berdi. Xalifa Chingizxon saroyiga maxfiy ravishda maxsus elchi yubordi. Manbalarga ko'ra, bu elchi Chingizxon saroyiga borib, uning qabulida bo'lgan.



Manbalarda



Muhammad Xorazmshoh 1212-yili Xuroson, Kirmon, Mikron, so'ng Balujistonni egallashga muvaffaq bo'ldi.

1216-yili G'azna, G'ur, Bomiyon yerlari qo'lga kiritildi, Sulton Muhammad Xorazmshoh davlati Sind daryosi bo'yigacha cho'zilib, bevosita Hindiston bilan chegaradosh bo'lib qoldi.

1217-yilga kelib Sulton Muhammad Xorazmshoh davlati tarkibiga Fors Iroqi (Iroqi Ajam), Mozandaron, Arron, Ozarbayjon, Shirvon, Fors, Kirmon, Mikron, Mang'ishloq, Seyiston, G'ur, G'azna, Bomiyon yerlari, jumladan, Kaspiy dengizidan Hindistongacha bo'lgan hududlar kirgan.

Xorazmshohlar saltanati hududi (XIII asr boshi)

